

The New York Times gazetasining bugungi soni: o‘zbekistonlik abituriyentlar birinchi sahifa qahramonlari



AQSHning The New York Times gazetasi bugungi sonida O‘zbekistonda boshlangan test sinovlariga bag‘ishlab fotoreportaj berdi.

“O‘n minglab yoshlar chorshanba kuni universitetlarga kirish imtihonlarini koronavirus pandemiyasi sababli ochiq havoda topshirish uchun butun O‘zbekiston bo‘ylab sport arenalariga yo‘l olishdi” deyiladi maqolada.

Unda 1,4 milliondan ortiq abituriyentlar stadionlar, ularning yugurish yo‘laklaridagi stollarda sinovlarni topshirayotgani ta’kidlangan.

“Chorshanba kuni ertalab Toshkentdagi stadionlardan biridagi test topshirish jarayonida yuzlab yigit-qizlar niqob kiyib qatnashdilar. Soyada o‘tirganlar uchun ob-havo qulay edi, boshqa sinovchilar o‘zlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri quyosh nurlaridan himoya qilish uchun kiyim va qog‘ozlardan foydalanishdi” deb yozadi nashr.

Manba